



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

PEDAGOG XODIMLAR KASBIY SHAROITLARI VA XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA ULARNING KASBIY SO'NISHGA TA'SIRI

Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi

Oila va Gender ilmiy tadqiqot instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada pedagog xodimlarning kasbiy sharoitlari va individual-xususiy sifatleri o'rganilib, ularning kasbiy so'nishga ta'siri tahlil qilingan. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, faoliyat samaradorligi, motivatsiya, hokimlik va yordam ko'rsatish motivlari, pedagogik qobiliyatlar va shaxsiy sifatlar kasbiy so'nish sindromining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishda muhim omillar sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyatdagi protsessual va natijaviy ko'rsatkichlar, individual-shaxsiy moslashuv hamda pedagogning intellektual, emotsional va kommunikativ sifatleri kasbiy so'nishga ta'sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, kasbiy so'nish sindromi, shaxsiy-xususiy sifatlar, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, professionalizm, individual-shaxsiy moslashuv.

СПЕЦИФИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ И ОСОБЕННОСТЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ РАБОТНИКОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ

Жамолитдинова Нигора Тохиржон кизи

Институт исследований семьи и гендера, независимый исследователь

Аннотация

В статье исследуются профессиональные условия деятельности педагогических работников и их индивидуально-личностные качества, а также анализируется их влияние на формирование синдрома профессионального выгорания. Особенности педагогической деятельности, её эффективность, мотивация, мотивы власти и помощи, педагогические способности и личностные качества рассматриваются как важные факторы, способствующие развитию профессионального выгорания. Подчёркивается, что процессуальные и результативные показатели педагогической деятельности, индивидуально-личностная адаптация, а также интеллектуальные, эмоциональные и коммуникативные качества педагога играют значительную роль в определении степени профессионального выгорания.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, синдром профессионального выгорания, индивидуально-личностные качества, мотивация, педагогические способности, профессионализм, индивидуально-личностная адаптация.

THE SPECIFICITY OF PROFESSIONAL CONDITIONS AND CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL STAFF AND THEIR IMPACT ON PROFESSIONAL BURNOUT

Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi

Institute for Family and Gender Research, Independent Researcher

Abstract

The article examines the professional conditions of pedagogical staff and their individual personal characteristics, analyzing their impact on the development of professional burnout syndrome. The specific features of pedagogical activity, its effectiveness, motivation, motives of authority and assistance, pedagogical abilities, and personal traits are considered as significant factors influencing the formation of burnout. It is emphasized that procedural and outcome indicators of pedagogical activity, individual adaptation, and the intellectual, emotional, and communicative qualities of teachers play a crucial role in determining the level of professional burnout.

Keywords: pedagogical activity, professional burnout syndrome, individual personal characteristics, motivation, pedagogical ability, professionalism, individual adaptation.

Pedagogik faoliyat pedagogning ta'lim oluvchiga tarbiyalash va ta'lim berishdan iborat ta'sir ko'rsatishi bo'lib, uning shaxslilik, intellektual va faoliyatli rivojlanishiga yo'naltirilgan hamda bir vaqtning o'zida uning o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirish asosi hamdir. Mazkur faoliyat sivilizatsiya tarixida madaniyatning yuzaga kelishi bilan, ya'ni ishlab chiqarish malakalari va ijtimoiy xulq-atvor normalarini yaratish, saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasi bilan birga paydo bo'ldi. J. Bruner fikricha, insoniyat faqat yosh avlodni o'qitishning faqat uchta asosiy usulini biladi: oliy primatlarda o'yin jarayonida ko'nikma komponentlari tarkibini ishlab chiqish, tuzem xalqlarda kontekstda o'qitish va bevosita amaliyotdan ajratilgan maktab metodi. Asta-sekin jamiyat rivojlanishi bilan birinchi sinflar, maktablar, gimnaziyalar ochila boshladi. Turli mamlakatlarda turli bosqichlarda o'qitish mazmuni, maqsadlarida juda muhim o'zgarishlar yuz berishiga qaramasdan, maktab ijtimoiy institut sifatida qoldi, uning asosiy vazifasi – ijtimoiy-madaniy tajribani o'qituvchilar va pedagoglar pedagogik faoliyati vositasida avloddan-avlodga yetkazishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Ijtimoiy-madaniy tajribani berish shakllari maktab rivojlanishi tarixida o'zgarib bordi. Dastlab u suhbat (Sokrat suhbat) yoki mayevtika ko'rinishida bo'ldi; keyin ustalar (kulol, ko'nchi, to'quvchi va ishlab chiqarishga o'rgatishning boshqa yo'nalishlari) ishida amalga oshirildi va bunda o'quvchi texnologik jarayonda sistematik va maqsadga yo'nalgan holda ishtirok etishi, ishlab chiqarish operatsiyalarini ketma-ketlikda o'zlashtirishi taqozo etildi; ta'lim berishning keyingi ko'rinishi verbal nasihatlar ("amakilar", ruhoniylar, guvernerlar institutlari)dan iborat bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan Ya.A. Komenskiy davridan boshlab sinf-dars o'qitish ko'rinishi mustahkam o'rin egallay boshladi, unda differensiallashgan ko'rinishlar – dars, ma'ruza, seminar, zacet, praktikumlar mustahkam o'rin egalladi. Aytib o'tish joizki, bu yerda pedagog faoliyatidagi eng qiyin shakl ma'ruza bo'lib, talaba uchun esa seminar, zacetlar qiyin faoliyatga aylandi.

Pedagogik faoliyat boshqa har qanday insoniy faoliyat turlari kabi xususiyatlarga egadir. Bu avvalambor, maqsad qo'yilganlik, motivlashtirilganlik, predmetlilik xususiyatlaridir. N.V. Kuzmina fikricha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning samaraliligidir. U pedagogik faoliyat samaradorligining beshta darajasini ko'rsatib o'tadi:

I – (minimal) reproduktiv; pedagog o'zi bilgan narsani boshqalarga aytib bera oladi, samaradorligi minimal.

II – (past) adaptiv; pedagog o'z axborotini auditoriya xususiyatlariga moslashtira oladi, samaradorligi juda kam.

III – (o'rta) lokal modellashtirilgan; pedagog o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarga o'rgatish strategiyalarini egallagan (ya'ni pedagogik maqsad qo'ya oladi, izlayotgan natijasi borasida o'ziga hisobot bera oladi va o'quvchilarni o'qish-bilish faoliyatiga

ketma-ketlikda kirish tizimini tanlay oladi), samaradorligi o'rtacha.

IV – (yuqori) o'quvchilarning tizimli-modellashtirilgan bilimlari; pedagog izlanayotgan bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish strategiyalarini egallagan, samaradorlik bor.

V – (oliy) o'quvchilarning tizimli-modellashtirilgan faoliyati va xulqi; pedagog o'z predmetini o'quvchi shaxsini shakllantirish vositasiga aylantirish strategiyalariga ega, samaradorligi yuqori."

Shu bilan birga pedagogik faoliyatda katta odam va bola o'zaro munosabatlarining maxsus shakli sifatida ustunlik qilish yoki hokimlik motivi kabi orientatsiya ham yuzaga keladi. Pedagogik qobiliyatlarni tadqiq etgan olimlardan biri N.A. Aminov fikricha, pedagogik faoliyatga hukmronlik qilish motivi qanday aloqasi borligini ko'rsatish uchun G.A. Myurreyning 1938-yilda keltirgan ustunlik qilishga ehtiyoj haqidagi nuqtai nazarini ko'rib chiqish lozim. G.A. Myurrey fikricha, ustunlik qilish ehtiyojlari belgilari yoki effektiga quyidagi xohishlar kiradi:

- o'zining ijtimoiy atrofini nazorat qilish;
- boshqa odamlar xulqiga ta'sir ko'rsatish va ularni maslahat, rag'batlantirish, ularga buyruq berish orqali yo'naltirish;
- boshqalarni o'z ehtiyojlari va hissiyotlariga mos ravishda ish tutishga undash;
- ular bilan hamkorlikka erishish;
- boshqalarni o'zining haq ekanligiga ishonitirish.

N.A. Aminov yana shuni ta'kidlaydiki, mazkur istaklarga ma'lum harakatlar mos keladi va ular G.A. Myurrey tomonidan guruhlariga ajratilgan:

- o'ziga qaratish, ishonitirish, ko'ndirish, boshqarish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish;
- bo'ysundirish, boshqarish, hokimlik qilish, shartlar qo'yish, muhokama qilish, qonunlar o'rnatish, normalar kiritish, xulq-atvor qoidalarini tuzish, qarorlar qabul qilish;
- taqiqlash, cheklash, qarshilik ko'rsatish, jazolash, mustaqillikdan mahrum qilish;
- maftun qilish, erishish, o'ziga quloq solishga majbur qilish, taqlidchilarga ega bo'lish, moda o'rnatish.

Hokimlik fenomenini tushuntirish nazariyalari asosida (A. Adler, D. Kartrayt, J. French, V. Raven, D. Mak-Klelland va boshqalar) N.A. Aminov Adlarning takomillashishga, ustunlikka va ijtimoiy hokimlikka erishishga intilishning shaxs sifatida rivojlanishdagi yetakchi motivlar majmuasidagi roli haqidagi tezisini keltirib o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi: O'quv-pedagogik jarayonda hokimlik resurslarini tahlil qilish uchun J. French va V. Raven tomonidan keltirilgan klassifikatsiya muhim ahamiyat kasb etishi juda ko'p mualliflar tomonidan e'tirof etiladi. Bunda hokimlik motivlaridan ba'zi birlari (taqdirlash, jazolash) o'qituvchi pedagogik harakatlari bilan mos keladi (N.A. Aminov, 1990). Mak-Klelland bo'yicha motivlashish bosqichlari ham alohida e'tiborga molik. Hokimlik motiviga bunday yondashuvni tahlil qila turib, N.A. Aminov shuni ta'kidlaydiki, Mak-Klelland hokimlik motivi rivojlanishining to'rtta bosqichini ajratibgina qolmasdan (assimilyatsiya, avtonomlik, o'zini o'zi tasdiqlash va samaradorlik), ularning har birini umr davrlari rivojlanishi nuqtai nazaridan tahlil qilib beradi.

Birinchi bosqich asosi ("nimadir menga kuch beradi") ona va bola munosabatlaridir. Hokimlikka yo'nalganlik nuqtai nazaridan hayotning keyingi yillarida u qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, ilhomlantirish, ta'sir ko'rsatish, ya'ni individda o'z kuchini his qilishni kuchaytirish bilan bog'liq odamlar bilan o'zaro munosabatlarni bildiradi.

Ikkinchi bosqich ("men o'z-o'zimga kuch beraman") o'rta bolalik davriga to'g'ri keladi, bunda onadan mustaqillikka erishish va o'z xulq-atvorini nazorat qilishga erishish bilan

bogʻliq ehtiyojlar nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqich (“men boshqalarda taassurot qoldiraman”) oʻsmirni bildiradi, uning uchun avtoritetlar tez oʻz kuchini yoʻqotadi, u doʻstlarini tez-tez almashtiradi, uning musobaqada qatnashishi boshqa odamlar ustidan gʻalaba qozonish imkoniyati bilan xarakterlanadi.

Toʻrtinchi bosqich (“men oʻz burchimni bajarishni xohlayman”) yetuklik davriga mos keladi, yaʼni katta odam oʻzini qandaydir ishga yoki maʼlum ijtimoiy guruhga xizmat qilishga bagʻishlaydi.

Tabiiyki, pedagogik faoliyat motivatsiyasini tahlil qilish uchun hokimlik motivi rivojlanishining eng soʻnggi bosqichi katta ahamiyat kasb etadi. Mualliflar fikricha, pedagogik faoliyatni tanlashdagi motivatsion soha asosida doimo boshqalarga yaxshilik qilish (bilim orqali yordam berish) yotadi. Mazkur holat pedagogik faoliyat muvaffaqiyati uchun ham muhim. Yordam koʻrsatish, altruistik (prosocial) xulq deganda boshqa odamlar manfaatiga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar tushuniladi. Bunday pozitsiya oʻqitish motivatsiyasiga ham mos keladi, garchi boshqa asosda ifodalangan va boshqa terminlarda keltirilgan boʻlsa-da.

Har qanday kasbiy faoliyat haqida gap ketganda, K.K. Platonov taʼrifida faoliyatning asosiy belgilari anglanganligi va maqsadga yoʻnalganligidir. G.V. Suxodolskiy nuqtai nazaridan faoliyatning asosiy tushunchaviy apparati oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

- “faoliyat subyekti”;
- “faoliyat morfologiyasi”;
- “faoliyat motivatsiyasi va funksiyasi”;
- “faoliyat dinamikasi”;
- “faoliyatlar xilma-xilligi”.

Muallif fikricha, umumpsixologik kategoriya sifatida faoliyat ierarxik darajaga ega. U oʻz ichiga tiplarni, sinflarni, sinfosti tuzilmalarni, sohalarni (shugʻullanish turi), ixtisosliklarni, predmetni (ixtisoslashuv) qamrab oladi. Aytganlardan kelib chiqadiki, shifokor kasbiy faoliyati – mehnat faoliyati sinfi boʻlib, maqsadlar yigʻindisiga erishish uchun moʻljallangan hamda maʼlum xususiyatlar va son xarakteristikalariga egadir.

Keyingi tadqiqotlar mantiqi “kasbiy faoliyat”, “kasb”, “ixtisoslik” tushunchalarining oʻzaro aloqadorligini koʻrib chiqishni talab etadi, ularning berilishi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin etilgan.

K.K. Platonov kasbni yashash manbai boʻlgan va mos oʻquv yurtlaridagi taʼlim bilan taʼminlanuvchi, maʼlum bilimlar, koʻnikma hamda malakalar mavjudligini talab qiluvchi mehnat faoliyati sifatida aniqlaydi. Bu taʼrifga Yu.V. Kotelova tomonidan berilgan taʼrif yaqinroq boʻlib, unga koʻra kasb – bu faoliyatning tipik, tarixan shakllangan shaklidir, u ijtimoiy maʼnoda zarur, uni bajarish uchun ishchi maʼlum bilimlar, koʻnikma va malakalar yigʻindisiga, shuningdek mos qobiliyatlar va shaxslilik xususiyatlariga ega boʻlishi zarur.

“Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi mazmunini koʻrib chiqib, T.P. Vodolazskaya va G.S. Nikiforov shuni taʼkidlaydilar, ixtisoslik faoliyat predmeti orqali ochiladi. U istagancha tor yoki keng boʻlishi mumkin, lekin har qanday holatda – bu mos ilmiy predmet orqali aks etuvchi obyektiv reallikning bir muncha boʻlimlari haqidagi bilimlar yigʻindisidir. Kasb – obyektiv zarur, maqsad orqali aniqlangan, reallikning mazkur boʻlimi bilan bogʻlangan faoliyatning alohida turidir. Mazkur taʼriflarga tayangan holda mualliflar shunday xulosaga keladilarki, bir ixtisoslik doirasida real tarzda har biri oʻz maqsadiga javob beruvchi mustaqil kasblar mavjud.

G.M. Bogoslovskiy tadqiqotlarida taʼkidlanishicha, “konkret inson nuqtai nazaridan kasb – bu shunday faoliyatki, uning yordamida mazkur shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi hamda u yashashning moddiy vositalari asosiy manbaidir”.

E.A. Klimov tomonidan ochib beriluvchi “kasb” tushunchasi yanada to‘laroq xarakterga ega. Kasb bu:

- shunday sohaki, unda inson mehnat subyekti sifatida o‘z funksiyalarini amalga oshiradi;
- ma’lum turdagi mehnat vazifalarini amalga oshiruvchi kishilar jamoasi;
- insonga xos tayyorgarlik (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar), ular tufayli inson ma’lum turdagi mehnat funksiyalarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- faoliyat, professional ishi, ya’ni mehnat va kasbiy bajariladigan funksiyalarni amalga oshirish jarayonining o‘zi.

Tahlil va natijalar: Pedagog kasbiy faoliyati, mashg‘ulotlar turi kabi, pedagogika sohasiga taalluqli bo‘lib, bir nechta sohalar (ixtisosliklar) va faoliyatning turli-tuman predmetlari – ixtisoslashuvni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi kasbiy faoliyati tahlili professionalizm kategoriyasini qo‘llashni taqozo etadi. A.K. Markova professionalizm talqinining bir nechta jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi. Birinchisi – bu “normativ professionalizm” bo‘lib, mehnatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan insondagi shaxslilik xususiyatlari yig‘indisi sifatida qoraladi. Boshqa ma’noda professionalizm tushuncha sifatida psixik sifatlar zaruriy normativ to‘plamiga ega bo‘lgan mehnat subyekti xarakteristikasini aks ettiradi. Va nihoyat, professionalizm mehnat subyekti yuqori bahoga loyiq bo‘lgandagi normativ funksiyalarini bajarish sifati tushuniladi.

A.K. Markova shaxs professionalizmining ikki tomoni va yettita mezon guruhlarini, o‘ziga xos bosqichlari va pog‘onalarini, shuningdek ichki o‘zaro aloqadorligi kasbiy faoliyatning obyektiv jarayonlari sifatida shartlangan beshta professionalizm darajasini ajratib ko‘rsatadi. Bu darajalar quyidagilar:

- professionalizmgacha bo‘lgan daraja;
- professionalizm;
- superprofessionalizm;
- professional bo‘lmagan yoki qalbaki professionalizm;
- professionalizmdan keyingi daraja.

Pedagogika instituti talabalarida shaxsiy sifatlar shakllanishini o‘rgangan S.X. Jalilova “ideal o‘qituvchi bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligini” ta’kidlaydi.

F. Xaydarov, N.X. Xalilova o‘qituvchining eng muhim shaxsiy sifatleri ichida quyidagilarni e’tirof etadilar: ijtimoiy javobgarlikni his etish, oliyanoblik, aql-farosat, ma’naviy poklik va ma’rifat bo’yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, sabr-toqatlilik, matonatlilik, o‘zini o‘zi doimiy rivojlantirish va takomillashtirish va h.k.

V.A. Kan-Kalik fikricha, o‘qituvchining individual sifatleri bir vaqtning o‘zida ikki darajali talablarga javob berishi kerak. Birinchi darajadagi talablarga o‘qituvchiga kasb egasi sifatidagi talablar kiradi. Ular ijtimoiy formatsiyalar, o‘quv muassasalari, o‘quv predmetiga bog‘liq emas. Mazkur talablarga har qanday o‘qituvchi, u qaysi o‘quv muassasasida, qaysi fandan mehnat qilmasin javob bera olishi kerak.

N.V. Kuzmina, A.I. Shcherbakov ta’kidlashlaricha, o‘qituvchida o‘zini o‘zi baholash adekvatligi, xavotirlanishning ma’lum optimumi bo‘lishi zarur va ular pedagogning intellektual faolligi, maqsadga yo‘nalganligi, tirishqoqligi, mehnatsevarligi, kamtarligini ta’minlaydi. Ayniqsa pedagogdagi o‘quvchilar psixik holatlarini tushuna olish, empatiya, ijtimoiy o‘zaro ta’sirga bo‘lgan ehtiyojning mavjud bo‘lishi juda muhimdir. Tadqiqotchilar tomonidan pedagogik takt masalasiga alohida o‘rin beriladi. Unda pedagogning umumiy madaniyati va yuqori professionalizmi namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi.

F.N. Gonobolin pedagogik qobiliyatlar strukturasiga kiruvchi quyidagi jihatlarni

keltiradi: o'quv materialini hamma uchun tushunarli qila olish, o'quvchilarga pedagogik-irodaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchilar jamoasini tashkil eta olish, talabalarga nisbatan mehrli bo'lish, pedagogik takt, nutq mazmunliligi va yorqinligi, o'quv predmetini hayot bilan bog'lay olish qobiliyati, kuzatuvchanlik, pedagogik talabchanlik va h.k.

Xulosa: Kasbiy faoliyatga moslashuvning individual shakllarini tahlil etish kengligi va pedagog noprofessionalizmi fenomenining psixologik jihati kasbiy dezadaptatsiya, shaxsdagi deformatsiya yoki "yonish", shuningdek uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonidagi ma'lum nuqsonlar, kasbiy tajribaning yetishmovchiligi sifatida qarash mumkin.

Samarali kasbiy faoliyat sifatida protsessual va natijaviy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan faoliyat hisoblanadi. Bunda pedagogning kasbiy faoliyatidagi nufuzli ko'rsatkich natijalarga (ijobiy o'zgarishlarga), o'quvchilar psixologik rivojlanishining ijobiy siljishlariga qarab belgilanadi. Shu bilan birga A.K. Markova fikricha, pedagoglik kasbida protsessual ko'rsatkichlar roli, ya'ni u yoki bu natijalarga erishishga olib keluvchi ta'sir vositalari va muhitning roli katta. Pedagog professionalizmi uning kasbiy faoliyati sharoitida o'zini turlicha namoyon qiladi. Pedagog uchun kasbiy faoliyatning turli sharoitlarida bir tomondan kasb talablariga mos kelish, boshqa tomondan esa o'zini kasbiy rivojlantirish mantiqiga rioya qilish, har qanday holatlarda ham ichki turg'unlikni saqlash muhimdir.

E.G. G'oziyev fikricha, ideal pedagogda takt, boshqani tushuna olish malakasi, xushmuomalalik, muloqotmandlik kasbiy sifatlardan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga egadir. Dunyoqarashning kengligi, har tomonlama bilimga ega bo'lish va yondosh fanlardan yaxshi xabardor bo'lish, mashg'ulotlarni o'tkaza olish malakasi oliy o'quv yurti o'qituvchisining eng muhim kasbiy sifatlaridan biridir. Kasbiy mahorat, talabalar bilan individual ish olib borish malakasi, qo'rqitish va baqirish bilan emas, mantiq bilan ishontira olish ham muhim hislatlardandir.

Shunday qilib, o'qituvchi kasbiga qo'yiladigan talablar borasida olib borilgan tadqiqotlar, bildirilgan fikrlar va ilgari surilgan g'oyalar doirasi juda xilma-xil bo'lib, zamon talabi o'zgarishi bilan o'zgarib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Учитель, 1996. – 121 с.
2. Климов Е.А. Психология труда. – М.: Юрайт, 2011. – 211 с.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Дрофа, 1996. – 128 с.
4. Суходольский Г.В. Основы психологической теории деятельности. – М.: ЛЕНАНД, 2012. – 152 с.
5. Ғозиев Э.Г. Олий мактаб психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 2006. – 56 б.
6. Ҳайдаров Ф.И., Халилова Н.Н. Психология ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2006. – 18–19 б.
7. Зеер Э.Ф. Психология профессий. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. проф.-пед. ун-та, 2000. – 87 с.